

MAXSUS SEZGILAR

Otaxonova Gulasal Boboxon qizi

Urganch Innovatsion Universiteti 3 bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21908662>

2 - qism

Tunda hayot kechiradigan hayvonlarning o'ziga xos maxsus sezgilari bo'ladi.

Ya'ni ular ko'rish, eshitish, biror narsaga tegib ko'rish, hid bilish va tam sezish qobiliyatlari insonlarnikiga nisbatan ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Bu sezgi organlari ularga tunda xavfsiz ravishda taom topishlari uchun judayam katta yordam beradi.

Tulki kabi yovvoyi itlar odatda tunda ovga chiqishadi. ularning ulkan burni bor va bu ularga o'ljalarini topishda yordam beradi.

Tulki hatto 12 santimetrgacha bo'lgan qor qatlami ostidagi sichqonlarning ham hidini seza oladi.

Shuningdek, tulkilarning qimirlata oladigan juda katta quloqlari bor, shu sababli ular atrofdagi barcha narsani juda yaxshi eshitishadi.

Yenotlar ham tungi hayvonlar sirasiga kirib, ularning uzun barmoqlari va paypaslab sezish qobiliyati bor, ular suvdan o'ljasi ovlayotgan paytida barmoqlari orqali baliq yoki qurbaqalarni topishda foydalanishadi.

Ko'pchilik tungi hayvonlar insonlarga nisbatan qorong'uda ko'rish qobiliyatlari o'tkir bo'ladi. Ularning ko'p miqdordagi yorug'likni ko'rishi uchun juda katta ko'zlari bor.

Tarsierning ko'zlari miyasiga nisbatan ancha katta. U qorong'uda juda ajoyib ko'rish qobiliyatiga ega